

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar-avgust holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar- ning soni **1130** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **4,4 %** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **984** taga oshgan.


2018 yilning yanvar-avgust oyida Namangan viloyatida 2270 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,6 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,6 % ga oshgan hamda ularning soni 174 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1130 ta (5,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21082 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (38,8%), Chust tumanida (8,0%), Namangan (7,2%), To'raqo'rg'on va Uychi (6,0) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Namangan viloyati	22058	100,0	21082	100,0
Namangan shapar	8625	39,1	8179	38,8
Mingbuloq tumani	875	4,0	866	4,1
Kosonsoy tumani	1254	5,7	1209	5,8
Namangan tumani	1584	7,2	1521	7,2
Norin tumani	871	3,9	846	4,0
Pop tumani	1181	5,4	1106	5,3
To'raq'org'on tumani	1356	6,1	1271	6,0
Uychi tumani	1282	5,8	1269	6,0
Uchq'org'on tumani	1079	4,9	1057	5,0
Chortoq tumani	1102	5,0	1036	5,0
Chust timani	1780	8,1	1685	8,0
Yangiq'org'on tumani	1069	4,8	1016	4,8


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,6 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 4,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,8 f.p. kamaygan.


2018 yil 1 sentyabr holatiga 2270 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 16,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (786 ta), Chust (180 ta), Uychi (163 ta), To'raqo'rg'on (145 ta), Mingbuloq (140 ta), Namangan (137 ta), Uchq'org'on (135 ta), Norin (129 ta), Pop (121 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam esa Yangiqo'rg'on (106 ta), Kosonsoy (112 ta), Chortoq (116 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (663 ta), boshqa turlarda (554 ta), savdoda (467 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (217 ta) va qurilishda (154 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (33 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (55 ta), yashash va ovqatlanishda (75 ta) hamda tasish va saqlashda (82 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsata yotgan korxonalarining ulushi savdoda (-1,2 f.p), qurilishda (-0,2 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (-0,1 f.p) kamaygan, sanoatda (+1,0 f.p.) boshqa turlar (+0,3 f.p) hamda tasish va saqlashda (+0,2 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.09.2017 y.	01.09.2018 y.	farqi (+-)
Savdo	24,7	23,5	-1,2
Qurilish	7,4	7,2	-0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,5	7,4	-0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,0	3,9	-0,1
Axborot va aloqa	1,5	1,5	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2,2	2,2	
Tashish va saqlash	3,5	3,6	0,1
Boshqa turlar	30,3	30,6	0,3
Sanoat	18,8	19,8	1,0

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 sentyabr holatiga 16832 dan oshiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5747 ta, oilaviy korxonalar – 312 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–10230 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–29 tani va boshqa tijorat korxonalar 543 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 119 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 taga yoki 25,3 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 85 tasi qo'shma korxonalar, 34 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 128 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 52 ta (40,6%), Uychi tumanida 11 ta (8,6%), Kosonsoy tumanida 10 ta (7,8 %), Chortoq tumanida 9 ta (7,0%), To'raqo'rg'on tumanida 8 tadan (7,0 %), Namangan tumanida 6 ta (4,7 %), Norin, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarida 5 tadan (3,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Uchq'org'on tumanida 4 ta (3,1%), 1 ta (0,8%) Mingbuloq tumani hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 85 ta (71,4%), savdoda 12 ta (10,1%), boshqa turlarida esa 9 ta (7,6%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqada 1 ta (0,8%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (4,2%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4 ta (3,4%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta (1,7%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 23 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Kasonsoy, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16734 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 4,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 6974 tasi (41,7 %) Namangan shahriga, 1342 tasi (8,0 %) Chust tumaniga, 1278 tasi (7,6 %) Namangan tumaniga, 1001 tasi (6,0 %) Uychi tumaniga hamda 981 tasi (5,9 %) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16734 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4912 tasi (29,4%)—savdoda, 4169 tasi (24,9 %) - sanoatda, 1520 tasi (9,1 %) - qurilishda, 1529 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 830 tasi (5,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 757 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 305 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 387 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2325 tasi (13,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 1857 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 foizga ko'p. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (676 ta), Chust (145 ta), Uychi (141 ta), Namangan (108 ta) To'raqo'rg'on tumanlarida (127 tadan) tashkil etilgan. Eng kam Yangiq'org'on (88 ta), Chortoq (89 ta), Pop (90 ta), Kosonsoy (76 ta) hamda Mingbuloq tumanlarida (96 ta) tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (633 ta), savdoda (467 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (215 ta) va qurilishda (154 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (75 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (55 ta) hamda axborot va aloqada (33 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,4 % savdoda, 19,9 % sanoatda, 7,2 % qurilish, 7,4% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 316 tani tashkil etib, ulardan 312 tasi yoki 98,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda **36.8** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 49,0 % yoki 153 tasi sanoat, 15,7 % yoki 49 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,9 % yoki 37 tasi savdo, 10,6 % yoki 33 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 2 tasi qurilish, 1,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa, 1,9 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **A.Siddiqov**
(0369) 227-84-96